AYOL TADBIRKOR

<table>
<tr><th colspan="2">SHART-QOIDALARI</th></tr>
<tr><td>Kredit summasi</td><td>3 000 000 000,00 so‘mgacha .</td></tr>
<tr><td>Kredit maqsadi</td><td>Barcha kichik va o‘rta biznes subyektlariga biznesni rivojlantirishga barcha maqsadlar uchun. (qonunchilikda taqiqlanmagan maqsadlar uchun) .</td></tr>
<tr><td>Kredit turi</td><td>Pul o‘tkazish va/yoki naqd pul ko‘rinishida ((yopiq) kredit liniyasini ochmasdan).</td></tr>
<tr><td>Kredit valyutasi</td><td>Milliy valyutada.</td></tr>
<tr><td>Kredit ajratish shartlari</td><td>
<table>
<tr><th>Kredit muddati</th><th>Imtiyozli davr</th><th>Asosiy depozit hisobvarag‘i ochgan mijozlarga</th><th>Ikkilamchi depozit hisobvarag‘i ochgan mijozlarga</th></tr>
<tr><td>12 oygacha</td><td>2 oygacha</td><td>20 %</td><td>21 %</td></tr>
<tr><td>18 oydan 36 oygacha</td><td>6 oygacha</td><td>21 %</td><td>22 %</td></tr>
</table>
</td></tr>
<tr><td>Loyiha ta’minoti</td><td>Ko‘chmas mulk, avtotransport vositalari va pul mablag‘lari garovi (garov qiymati ajratilayotgan kredit summasining 125 foizidan kam bo‘lmasligi lozim).</td></tr>
<tr><td>Ta’minotga mol-mulk garovi qabul qilingan taqdirda garov mulkiga bo‘lgan talab</td><td>- noturar joy va/yoki turar joy (turar joyda hech kim ro‘yxatda bo‘lmasligi lozim);
- garovga qabul qilinayotgan avtotransport vositalarining ishlab chiqarilganligiga 5 yildan ko‘p bo‘lmasligi lozim (Davlat texnik nazorat boshqarmasidan ro‘yxatdan o‘tadigan maxsus texnika vositalari garov ta’minoti sifatida qabul qilinmaydi). Agar garovga qabul qilinayotgan avtotransport vositalarining ishlab chiqarilganligiga 5 yildan 10 yilgacha bo‘lganda ushbu mulklar muddati 24 oygacha bo‘lgan kreditlar bo‘yicha ta’minot sifatida qabul qilinishi mumkin;
- garovga taqdim etilayotgan garov mulklari boshqa garovlardan ozod bo‘lishi lozim (“Trastbank” XABda aynan shu mijozning boshqa kreditlari bo‘yicha garovda bo‘lgan hollar bundan mustasno).</td></tr>
<tr><td>Qo‘shimcha ta’minot</td><td>Qo‘shimcha ta’minot sifatida yuridik va jismoniy shaxslarning uchunchi shaxs kafilligi va boshqa ta’minotlar qabul qilinishi mumkin.
Uchunchi shaxs kafilligiga bo‘lgan talablar:
- kafilning so‘ndirilmagan muddati o‘tgan qarzdorliklari mavjud bo‘lmagan bo‘lishi lozim;
- faoliyati zarar ko‘rib ishlamayotgan bo‘lishi lozim;
- doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishi lozim;
- Yakka tartibdagi tadbirkor o‘zining olinayotgan kreditiga jismoniy shaxs sifatida kafilligi qabul qilinmaydi.</td></tr>
<tr><th colspan="2">Tadbirkorlik subyektiga (qarz oluvchiga) bo‘lgan talablar</th></tr>
<tr><td>Tadbirkorlik subyektiga (qarz oluvchiga) bo‘lgan talablar</td><td>Ta’sischilari tarkibida ayollar ulushi 50 foiz va undan yuqorini tashkil qilgan va (yoki) rahbari ayol kishi bo‘lgan kichik va o‘rta biznes subyektlari</td></tr>
<tr><td>Asosiy hisob raqamiga bo‘lgan talab</td><td>Ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyat yuritayotganligiga 6 oydan kam bo‘lmagan bo‘lishi lozim</td></tr>
<tr><td>Pul aylanmalariga talab</td><td>Qarz oluvchining oxirgi 6 oy davomida uzluksiz tushumga ega bo‘lishi hamda tadbirkorlik faoliyatidan kelib tushayotgan pul mablag‘larining o‘rtacha bir oylik tushumi ajratiladigan va amaldagi kredit mablag‘lari bo‘yicha oylik to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetarli bo‘lishi lozim</td></tr>
<tr><td>Hisob raqam holatiga bo‘lgan talab</td><td>2-sonli kartotekada qarzdorlik mavjud bo‘lmasligi lozim.</td></tr>
<tr><td>Buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari</td><td>Moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari bo‘yicha zararsiz ishlayotgan va nolikvidli balansga yo‘l qo‘ymagan bo‘lishi lozim (yuridik shahslar uchun) (Bunda so‘ngi moliyaviy yil va so‘ngi chorak uchun buxgalteriya balansi hisoboti inobatga olinadi)</td></tr>
<tr><td>Xo‘jalik yurituvchi subyektlar majburiyatlariga bo‘lgan talab</td><td>Ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan kichik va o‘rta biznes subyektlari (kredit tarixiga ega bo‘lmagan qarz oluvchilar ijobiy kredit tarixiga ega deb tasniflanadi);</td></tr>
<tr><td>Kredit tarixiga bo‘lgan talab</td><td>Qarz oluvchida so‘ndirilmagan muddati o‘tgan qarzdorliklari mavjud bo‘lmagan va oxirgi 12 oyda 90 kundan ortiq muddati o‘tgan qarzdorliklarga yo‘l qo‘ymagan bo‘lishi lozim.</td></tr>
</table>